

№ 05 sonli pudrat shartnomasi

2022 й. «25» 5

2022-949-3-43-TB-
соҳ

Арионий

ш.

Arnasoy tumani tibbiyot birlashmasi (keyingi o'rirlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi mudiri M.Abdusattarova va «Ilg'or zamon tadbirkori» MCHJ keyingi o'rirlarda "Pudratchi" deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi korxona rahbari A.Samanovlar mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. Shartnoma predmeti

1.1. Pudratchi o'z zimmasiga buyurtmachining topshirig'iga ko'ra mazkur shartnomaning 1.2.-bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ishlarning natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Pudratchi keyingi o'rirlarda "Ishlar" deb ataladigan quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini oladi:

Arnasoy tumani tibbiyot birlashmasining laboratoriya va stasionar bo'limlarini joriy ta'mirlash ishlarni bajarish.

1.3. Pudratchi ishlarni o'zining materiallaridan, o'zining asbob-uskunasidan va o'zining instrumentlari bilan bajaradi.

1.4. Ishlarni bajarish muddati: Buyurtmachi tomonidan dastlabki 30 foiz avans mablag'i ajratilgan kundan boshlab 30 kun ichida amalga oshiradi, qolgan 70 foizni bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnama imzolagandan so'ng 7 bank ish kun ichida qabul kilish dalolatnomasi, xisob-faktura v.b asosida to'laydi.

1.4.1. Ishlar buyurtmachi yoki uning vakolatlari vakili tomonidan ishlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangandan keyin bajarilgan deb hisoblanadi.

2. Majburiyatlarning bajarilishi muddati

2.1. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma umumiy qiymatining 30 foizi miqdorida bunak to'lovlarni amalga oshiradi. Ishlarni qabul qilishda aniqlangan nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish ishlari to'liq hajmda bajarilgandan so'ng buyurtmachiga bajargan ishlar uchun oxirgi, uzil-kesil, hisob-kitobni amalga oshiradi.

2.2. Mazkur shartnoma G'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tgandan so'ng kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

3. Taraflarning huquq va majburiyatları

3.1. Pudratchining majburiyatları:

3.1.1. Ishlarni lozim bo'lgan sifatda bajarish.

3.1.2. Ishlarni mazkur shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan muddatda bajarish.

3.1.3. Ob'ektga loyixaga binoan zarur bo'lgan materiallarni, konstruksiyalarni, butlovchi ashyolarni etkazib berish va ularni qabul kilish, tushirish, taxlash hamda saqlashni amalga oshirishi;

3.1.4. Ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun jalg qilinadigan maxsus tashkilotlar bilan subpudrat shartnomalarini tuzgani to'g'risida buyurtmachiga axborot berishi va u tomonidan ishlarning bajarilishi yuzasidan nazoratni ta'minlashi;

3.1.5. Ishlarning natijasini buyurtmachiga topshirish.

3.1.6. Agar Pudratchi ishlarni bajarish jarayonida shartnoma shartlaridan ishlarning sifatini yomonlashtirishga olib keladigan chetga chiqishga yo'l qo'ygan bo'lsa,

buyurtmachining talabiga binoan aniqlangan barcha kamchiliklarni 10 kun ichida tekinga bartaraf etish.

3.1.7. Texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va ob'ektni qo'riklash bo'yicha zaruriy chora-tadbirlarning bajarilishini ta'minlashi;

3.1.8. Ishlarni shaxsan bajarish.

3.2. Pudratchi quyidagi huquqlarga ega:

3.2.1. Buyurtmachi tomonidan mazkur shartnomaning 3-bandida ko'rsatilgan haq to'lash majburiyati bajarilmaganda, Pudratchi ishlarning natijasini ushlab turish huquqiga ega.

3.3. Buyurtmachining majburiyatları:

3.3.1. Pudratchidan ishlar tugallanganligi haqida xabarnoma olgandan keyin 5 kun ichida yoki mazkur shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan muddat tugaganda, ishlarning natijasini ko'rib chiqish va qabul qilish, ishlarning natijasini yomonlashtiradigan shartnomadan chetga chiqishlar yoki ishlardagi boshqa kamchiliklar aniqlanganda, bular haqida Pudratchiga darhol xabar berish.

3.3.2. Ishlarning natijalarini qabul qilgan paytdan mazkur shartnomaning 3-bandida ko'rsatilgan hisoblashishlar tartibi bo'yicha ishlar uchun haq to'lash.

3.4. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

3.4.1. Har qanday vaqtida Pudratchining faoliyatiga aralashmagan holda u tomonidan bajariladigan ishlarning borish jarayoni va sifatini tekshirish.

3.4.2. Buyurtmachi ish natijasi o'ziga topshirilgunga qadar istagan vaqtida shartnomadan voz kechib, belgilangan bahoning buyurtmachi shartnomani bajarishdan voz kechganligi to'g'risidagi xabarnoma olingunga qadar bajarilgan ishlar qismiga mutonosib qismini Pudratchiga to'lash. Bunda buyurtmachi Pudratchiga shartnomaning bekor qilinishi tufayli etkazilgan zararni bajarilgan ishning bahosi bilan hamma ish uchun belgilangan baho o'rtasidagi farq doirasida to'lashi ham shart.

4. Shartnomaning bahosi va hisoblashishlar tartibi

4.1. Mazkur shartnomaning bahosi **198 500 000 (bir yuz to'qson sakkiz million besh yuz ming)** so'mni tashkil qiladi.

Shundan: **25 891 304 (yigirma besh million sakkiz yuz to'qson bir ming uch yuz to'rt)** so'm **35 (o'ttiz besh)** tiyinni qo'shimcha qiymat solig'i tashkil qiladi.

4.2. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga shartnomada ko'rsatilgan hisob-kitob hisobvarag'iga pul mablag'larini ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

5. Taraflarning javobgarligi

5.1. Pudratchi mazkur shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarish muddatini buzganligi uchun har bir kechiktirilgan kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan taraflni etkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

5.2. Bajarilgan ishlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi Pudratchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'limgan miqdorida penya to'laydi.

5.3. Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan taraflarning javobgarlik choralar O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiluvchi fuqarolik qonunchiligi me'yorlariga muvofiq qo'llanadi.

5.4. Neustoyka to'lash taraflarning ular oldida turgan majburiyatlarini bajarishdan yoki shartlarning buzishini bartaraf etishdan ozod etmaydi.

6. Fors-major xolatlari

6.1. Hech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmanan sabablarga ko'ra va engib bo'lmash kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar bo'yicha javobgar emas. (Urush e'lon qilinishi yoki boshlanishi, fuqarolar tartibsizligi, epidemiya, embargo, er qimirlashi, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar shular jumlasidandir.)

6.2. Bartaraf kilib bo'lmaydigan kuchlarning mavjudligi yoki amalda davom etayotganligini O'zbekiston Respublikasi Hukumatining shunga oid qarorlari yoki boshqa vakolatli organlar tomonidan berilgan guvoxnomalari uning etarli darajadagi tasdig'i bo'lib hisoblanadi.

6.3. O'z majburiyatini bajarmagan taraf shartnomaga bo'yicha majburiyatni bajarishga uning ta'sir ko'rsatishi yoki monelik qilishi to'g'risida boshqa tarafga imkon qadar tezda xabar berishi lozim.

7. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Mazkur shartnomani bajarishda yuzaga keladigan nizolar va kelishmovchiliklar taraflar o'rtaida imkon qadar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

7.2. Nizolarni taraflarning muzokaralari yo'li bilan hal etish imkon bo'lmanan taqdirda, taraflar kelishmovchiliklarni bartaraf etish borasida qonunchilikda ko'zda tutilgan sudgacha bo'lgan jarayonlarni amalga oshirilganlaridan so'ng ularni qonunda belgilangan tartibda Iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqishga topshiradilar.

8. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi

8.1. Ushbu shartnomaga har qanday kiritilgan qo'shimcha va o'zgartishlar yozma ravishda rasmiylashtirilib, har ikkala taraf imzolanib, G'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tgandan so'ng haqiqiy kuchga ega bo'ladi.

8.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor kilish taraflarning kelishuvi bo'yicha yoxud O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 01 noyabrdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni hamda amaldagi qonun xujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha, etkazilgan zararlarni qoplash bilan amalga oshirilishi mumkin.

8.3. Buyurtmachi quyidagi hollarda shartnomani bekor kilishga haqla:

- Pudratchining aybi bilan ishlarning borishini sustkashlik bilan to'xtatib turilishi, ya'ni ushbu shartnomadagi ishlarning tamom bo'lish muddati bir oydan ko'pga oshib ketganda;

- Pudratchining shartnomada shartlarini buzishi natijasida loyihada ko'rsatilgan ishlarning sifati pasayganda.

8.4. Pudratchi qo'yidagi hollarda shartnomani bekor qilishga hakli:

- Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga bog'liq bo'lmanan sabablar bo'yicha qurilish-montaj ishlarining borishini bir oydan oshadigan muddatga to'xtatib turganda;

- Buyurtmachi tomonidan keyinchalik ishlarni moliyalash imkoniyati yo'qotilganda.

8.5. Buyurtmachi va Pudratchining birgalikdagi qarori bo'yicha shartnomada bekor kilinganda, buyurtmachiga tugatilmagan qurilish topshiriladi, buyurtmachi esa Pudratchiga ular tomonidan aniqlangan bajarilgan ishlarning hajmi kiymatini to'laydi.

8.6. Shartnomani bekor kilishga qaror qilgan taraf boshqa tarafga yozma xabarnoma yuboradi.

9. Korrupsiyaga qarshi talablar

9.1. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi

✓ Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishontiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi.

9.2. Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Yetkazib beruvchining manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Yetkazib beruvchining hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

10. Yakuniy qoidalar

10.1. Mazkur shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar, ular faqat yozma shaklda tuzilib, taraflarning bunga vakolatli vakillari tomonidan imzolanib, G'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tgandan so'ng haqiqiy hisoblanadi.

10.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzildi ikkala nusxa aynan bir xil va teng kuchga ega. Taraflarning har birida mazkur shartnomaning bir nusxasi mavjud.

11. Taraflarning manzillari va bank rezervitlari

«Ijrochi»

“Ilg’or zamон tadbirkori” O.O.O.

(Pudratchi tashkilot nomi)

Manzil: Arnasoy tumani Samarqand ko'chasi
X/R: 20208000905236851001.

Bank: ATB “Agro”bank Arnasoy filiali

INN: 307469827.

MFO: 00124.

IFUT: 41201.

«Buyurtmachi»

Arnasoy tumani tibbiyot birlashmasi

(byudjetdan mablag' oluvchining nomi)

Manzil: Arnasoy t Bobur MFY
sh/h* 100022860082017073101054001.

Bank nomi: Toshkent sh Markaziy bank Bosh Boshqarmasi

MFO: 00014. STIR: 200331571.

IFUT: 91511.

G'aznachilik bo'linmasi nomi

O'z.Res. Moliya vazirligi yagona G'azna xisob varagi

G'azna h/v: 23402000300100001010.

MFO: 00014.

g'aznachilik bo'linmasi STIRi: 201 122 919.

Rahbar _____
(lavozim)
(F.I.SH)

A.Samanov
imzo



Raxbar: _____
(lavozim)
(F.I.SH)

M.Abdusattarova.
imzo



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING
QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

TE44708505

1. Loyihaning turi – shartnoma.
2. Loyihaning nomi – 198 500 000 so‘mlik pudrat shartnoma shartnoma.

Shartnoma tomonlari:

Pudratchi - «Ilg‘or zamon tadbirkori» MCHJ keyingi o‘rinlarda nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi korxona rahbari A.Samanov.

Buyurtmachi - Arnasoy tuman tibbiyot birlashmasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi rahbari Abdusattarova Muxabbat.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana – “Arnasoy tumani tibbiyot birlashmasi” 2022 yil 24 may.

4.Loyiha bo‘yicha taklif va e’tirozlar:

Loyixa amaldagi qonun xujjalari muvofiq ishlab chiqilgan.

**Arnasoy tuman yuridik
xizmat ko‘rsatish markazi
bosh yuriskonsulti:**



A.G‘aybullayev

25.05.2022 yil

«ТАСДИҚЛАЙМАН»
Арнасой туман тиббиёт
бирлашмаси бошлиги
М.Абдулсаттарова
2022 йил.

Арнасой туман тиббиёт бирлашмасининг лабаратория ва стационар бўлимларини бюджет маблағлари хисобидан хамда лоййха-смета хужжатлари ва экспертиза хulosасига асосан жорий таъмирлаш иш хизматларини бажариш бўйича.

2022 йил “15”

мой

МАЖЛИС БАЁННОМАСИ № 23

Арнасой туман

Катнашдилар:

Н.Абдуалимова

-Арнасой туман тиббиёт бирлашмаси бошлиқ уринбосари баҳолаш танлов комиссиясининг раиси

КОМИССИЯ АЪЗОЛАРИ:

Ш.Сапаров

- Арнасой ТТБ иктисадчиси, комиссия аъзоси

Б.Махмудов

- Арнасой ТТБ моддий хисобчи, комиссия аъзоси

С.Каюмов

- Арнасой ТТБ хужалик мудири, комиссия аъзоси

М.Юсупов

- Арнасой ТТБ ходим, комиссия аъзоси

Кун тартиби:

Арнасой туман тиббиёт бирлашмасининг лабаратория ва стационар бўлимларини бюджет маблағлари хисобидан хамда лоййха-смета хужжатлари ва экспертиза хulosасига асосан жорий таъмирлаш иш хизматларини бажариш бўйича берилган 16 май 2022-йилдаги 200.000.000 (икки юз миллион) сўмлик, №86005-сонли лотга асосан асосан энг яхши таклифларни танлаш бўйича ўтказилган танловда, танлов комиссияси аъзолари томонидан ушбу лот бўйича таклифларни берган иш хизматларни бажарувчилар орисидан энг яхши таклиф берган иш хизматларни бажарувчи танлаб олинган холда голиб аникланди хамда 2 иш куни мобайнида танлов натижаларига асосан аникланган голибга нисбатан ракобатчилар томонидан хеч қандай этироzlар бўлмаганлиги сабабли **ООО “ILG’OR ZAMON TADBIRKORI”** билан 198.500.000 (бир юз тўқсон саккиз миллион беш юз минг) сўмга тиббиёт бирлашмасининг лабаратория ва стационар бўлимларини жорий таъмирлаш иш хизматларини бажариш бўйича шартнома тузиш кўриб чиқилди.

Қарор килади:

ООО “ILG’OR ZAMON TADBIRKORI” томонидан тиббиёт бирлашмасининг лабаратория ва стационар бўлимларини жорий таъмирлаш иш хизматларини бажариш бўйича ракобатчиларга нисбатан энг яхши таклифларни берганлиги хамда 2 иш куни мобайнида голибга нисбатан эҳҷ қандай этироzlар бўлмаганлиги сабабли **ООО “ILG’OR ZAMON TADBIRKORI”** билан тиббиёт бирлашмасининг лабаратория ва стационар бўлимларини жорий таъмирлаш иш хизматларини бажариш бўйича шартномаси тузилсин.

Н.Абдуалимова
(И.Ф.О.)

(Имзо)

Ш.Сапаров
(И.Ф.О.)

(Имзо)

Б.Махмудов
(И.Ф.О.)

(Имзо)

С.Каюмов
(И.Ф.О.)

(Имзо)

М.Юсупов
(И.Ф.О.)

(Имзо)